

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

“МОЛИЯ-ИҚТИСОД” факультети

“МОЛИЯ” кафедраси

Молия фанидан

КУРС ИШИ

Мавзу: Kapital qo`yilmalarni moliyalashtirish manbalari.

Бажарди: ИММ-71 гуруҳ талабаси U.Zoitjonov.

Текширди: S.Sagdieva

Тошкент 2015

Mavzu: Kapital qo'yimlarni moliyalashtirish manbalari.

Reja:

I. Kirish.

II. Asosiy qism.

1. Kapital qo'yimlarning mazmun-mohiyati.
2. Kapital qo'yimlarni moliyalashtirish manbalarining hozirgi holat tahlili.
3. Korxonalar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Kirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni rivojlanishida investitsiya va kapital qo'yilmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Bizga ma'lumki, mamlakatdagi investitsion jarayonlar asosida kapital qo'yilmalar yotadi. Kapital qo'yilmalar mamlakatning investitsion salohiyatini oshirishga hamda investitsiya faoliyatini kengayishiga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq kapital qo'yilmalarni keng miqyosida iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etishga, investitsiya faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Chunki, bizning mamlakatda ham iqtisodiy rivojlanishga samarali investitsiya faoliyatisiz erishib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirar ekan, investitsiya va kapital qo'yilmalar jadallashtirishdagi xalqaro tajribalarga suyanmog'i lozim. Binobarin, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil va nufuzli tarzda kirib borayotganligi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy sohalaridagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni talab qilishi tabiiydir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi"¹. Shu sababli, "Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari" mavzusini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kapital qo'yilmalar hajmini oshirish, uni moliyalashtirish manbalarini izlab topish muhim hisoblanadi.

Davlat mulkining iqtisodiyotdagi salmog'i kamayib, xususiy sektorning o'rnini va rolining oshib borishi natijasida kapital qo'yilmalarni respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlariga kiritish borasidagi qiziqishi ortib bormoqda. Biroq, imkoniyatlar chegaralangan bo'lsada mamlakatdagi mavjud investitsion muhit ichki va xorijiy xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun har qanday sharoitda ham bo'sh turgan pul mablag'larini investitsion faoliyatga jalb etish va undan daromad olishni kafolatlamoq'i lozim. Bu vazifani oqilona hal qilish, o'z navbatida, samarali hisoblangan ustuvor tarmoqlarni aniqlash, mahalliy va xorijiy kapital qo'yilmalarni rag'batlantiruvchi maqbul investitsion siyosat yuritish va qulay investitsion muhit yaratishni talab etadi. Shu boisdan ham nafaqat ichki, balki xorijiy kapital qo'yilmalarni hajmini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlarida ilmiy-amaliy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". - T.: "O'zbekiston", 2010.

1. Kapital qo'yilmalarning mazmun-mohiyati.

Kapital qo'yilmalar - ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yangi qayta qurilgan, hamda kengaytirilgan joriy asosiy jamg'armalar tashkil qilishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'lar.

Mablag'lar muntazam tayyorlov bosqichidan qurilish ishlab chiqarish bosqichiga aylanadi, shundan so'ng mahsulotni sotish bosqichiga o'tiladi, bunda ular jamg'arma bo'lib o'zgaradi.

Kapital qo'yilmalar quyidagi xarajatlarga yo'naltiriladi:

- ✓ qurilish-montaj ishlariga;
- ✓ turli jihozlarni va asboblarni sotib olishga;
- ✓ boshqa har qanday xarajatlar - loyiha qidiruv ishlari, qurilish maydonini tayyorlash kabilar.

Yuqorida qayd qilingan uch elementning o'zaro nisbati kapital qo'yilmalarning tuzilishini tashkil qiladi. U tarmoq texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilishi bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yilmalar xalq xo'jaligi sohalarida buyurtmachilarga ularning mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji, rivojlanish va haqiqiy ishlab chiqarish kuchlariga qarab taqsimlanadi. Bu esa soha tuzilishini tashkil qiladi. Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi qurilish - montaj ishlarining, jihozlarning, asbob-uskunaning, shuningdek jamg'armaning mulkiy hajmi hisobidagi turlicha xarajatlarning ratsional hajmini aniqlashga qaratilgan.

Kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishini qurilish-montaj ishlariga sarflayotgan xarajatlar miqdorini kamaytirish yo'li bilan amaldagi asosiy jamg'armalardan ham to'liq foydalanish imkonini beradi. Amaldagi korxonalarning quvvatlarini qo'llab-quvvatlashda, ularni texnik qayta qurollantirishda, kengaytirish va qayta qurishda, shuningdek yangi korxonalarni qurishda kapital qo'yilmalarining takror ishlab chiqarish tuzilishini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalar tarmoq, texnologik va takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yilmalarning tarmoq tarkibi-bu xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalarning miqdoriy nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibi – mashina va asbob-uskunalarini sotib olishga va qurilish montaj ishlarini amalga oshirishga ketadigan xarajatlar orasidagi nisbatni aks ettiradi. Asosiy fondlarning aktiv qismini (mashina va asbob-uskunalarini takror ishlab chiqarishning kapital qo'yilmalardagi ulushini oshirish yo'li bilan ularning tarkibini takomillashtirish sarflar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarni takror ishlab chiqarish tarkibi ularni bir tomondan yangi qurilishlarga, ikkinchi tomondan mavjud korxonalarni qayta qurish va texnik qayta qurollantirishni va kengaytirishga saflanadigan mablag'lar miqdori o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar, hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu ob'ektlar ular uchun yaratiladi.

Investitsiya faoliyatida kapital qurilishni mablag` bilan ta'minlashni ochish uchun buyurtmachi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagilarni taqdim etadi:

1) qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati);

2) qurilishning titul ro'yxati;

3) buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi;

4) pudratchi tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnomasi nusxasi;

5) qurilish – montaj ishlarini bajarishga “Davarxitektqurilish” qo'mitasining ruxsati.

Qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati – ob'ektlar ro'yxatini, shuningdek ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ishlar va xarajatlar hajmini o'z ichiga oluvchi har yili buyurtmachilar tomonidan ajratilgan limitlar doirasida tuziladigan moliyaviy hujjat.

Qurilishning titul ro'yxati - qurilishning butun davriga kapital qo'yilmalar hajmini va uni sarflash yo'nalishlarini ko'rsatgan, uning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini aks ettirgan holda har bir ob'ekt bo'yicha tuziladigan moliyaviy hujjatdir.

Qurilishda ish hujjatlari – alohida binolar va inshootlarga hamda ish turlariga ish chizmalari komplektidir.

Kapital qo'yilma – bu, yangi korxonalarni barpo etish, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarini texnik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy, iqtisodiy, moddiy va mehnat xarajatlari yig'indisiga aytiladi.

Kapital qo'yilmalar iqtisodiy jihatdan kapital investitsiyalarni anglatadi, ular deyarli bir mazmunni bildiradi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasida kiritiladigan investitsiyalarni – qo'yilmalarni – xarajatlar majmuasini anglatadi. Shu o'rinda, kapital qo'yilma yoki kapital investitsiyalarning real investitsiyalardan farqlab olish zarur. Real investitsiyalar fizik ob'ektlarga kiritiladigan investitsiyalar majmuasini bildirib, ular nafaqat mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish ob'ektlariga kiritiladigan investitsiyalarni anglatadi, balki boshqa turdagi noishlab chiqarish ob'ektlariga va tijorat maqsadlari ko'zlanmaydigan sohalarga, xususan ijtimoiy samara olib keluvchi sohalarga ham kiritiladigan investitsiyalardan iborat bo'ladi. Real kapital qo'yilmalar esa, faqat ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat:

✓ kapital qo'yilmalarning tarmoq tuzilishi, ya'ni jamiyat miqyosida kapital qo'yilmalarning tarmoqlar bo'yicha sarflangan qiymatini anglatadi;

✓ kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi, ya'ni asosiy fondlarning aktiv elementlari va passiv elementlariga sarflangan xarajatlar nisbatini anglatadi. Aktiv elementlar deganda, o'z qiymatini bevosita mahsulot yoki xizmatlar tannarxiga o'tkazuvchi, bevosita amortizatsiyalanuvchi elementlar va ob'ektlar tushuniladi, bularga texnologik uskunalar, mashina va qurilmalar qiymati misol bo'ladi. Passiv elementlar esa o'z qiymatini tannarx tarkibiga bilvosita kiritib boruvchi ob'ektlar va vositalar qiymatini anglatadi. Ularga bino-imoratlar, mebel, ofis jihozlari, kompyuter texnikasi va moddiy hamda nomoddiy ob'ektlar misol bo'la oladi;

✓ kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi, ya'ni mavjud ob'ektlarni qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, yangi ob'ektlarni barpo etish va harakatdagi korxonalarni kengaytirish bo'yicha qilingan xarajatlarning nisbatiga aytiladi.

Kapital qo'yilmalar qiymati davlat, korporativ va xususiy investitsiyalarni rejalashtirish jarayonida qo'llaniladi, ular asosida investitsion faoliyat prognozlashtiriladi. Yillik o'zlashtirilish zarur bo'lgan kapital qo'yilmalar hajmi Davlat investitsiya dasturida ko'rsatib o'tiladi. Kapital qo'yilmalar hajmi Dastur tarkibidagi dastlabki hujjatda aks ettiriladi. Kapital qo'yilmalar hajmi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi, qo'yilmalar qiymatini aniqlashda, Moliya vazirligi va Markaziy bank ham ishtirok etadi.

Hozirgi vaqtda korxonalarni qayta qurish, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga katta miqdorda kapital qo'yilmalari yo'naltirilmoqda. Ishlab turgan korxonalarga kapital qo'yilmalarning sarflanishi texnik taraqqiyotning jadallashib borishi va ishlab turgan texnikaning eskirib borishiga bog'liqdir.

Agarda mamlakatning yangi tabiiy boyliklar konlari ochilishi bilan bog'liq bo'lgan mintaqalarda kapital qo'yilmalarni yangi korxonalarni qurishga va yangi quvvatlarni barpo qilishga sarflanishi to'g'ri bo'lsa, boshqa mintaqalarda, ayniqsa qayta ishlash sanoatidagi, ishlayotgan korxonalarni qayta qurish, texnik qayta qurollantirish to'g'ri bo'ladi.

Hozirgi sharoitda ilgari qurilgan ko'pgina korxonalarda eskirgan uskunalarni modernizatsiyalash zarurati yuzaga kelgan. Bu ishlab chiqarishning intensivlashga va texnikani hozirgi zamon talablariga javob berishga va mehnat unumdorligini oshishga olib keladi. Qator mintaqalarda qayta qurish ushbu mintaqqa iqtisodiyotini ko'p qirrali rivojlantirish, korxonalarni zarur buyumlar bilan ta'minlanishi uchun ham zarurdir. Ammo ishlayotgan korxonani qayta qurish har bir holatda chuqur iqtisodiy asoslarni talab qiladi.

Tajribaning ko'rsatishicha ayrim korxonalarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarning qilinmaganligi natijasida qayta qurish bo'yicha samarasiz ishlarni amalga oshirildiki, natijasida qayta qurishga ketgan sarflardan ham oshib ketdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish birinchi navbatda korxonalarni texnik qayta qurollantirish, mexanizatsiya va avtomatizatsiya, uni ixtisoslashtirish, texnologiyani yaxshilash va tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va bank kreditlari hisobiga korxonalarni texnik qurollantirish ko'payib boradi.

Kapital qo'yilmalar dastavval boshlangan qurilishlarni tugatish va ishga tushirish lozim bo'lgan ob'ektlarga yo'naltiriladi, shuning asosida ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni ishga tushirishga erishiladi.

2. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarining hozirgi holat tahlili

Asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda yalpi milliy mahsulot va tarkibiy qismlarini qoplash fondi va milliy daromad, iste'mol fondi va jamg'arish fondi orasidagi aloqa va nisbatlarda o'z ifodasini topadi. Kapital qo'yilmalarning bosh manbai – bir vaqtning o'zida takror ishlab chiqarish

jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish natijasi va ishlab chiqarish asosi sifatida ishtirok etuvchi milliy daromad hisoblanadi. Asosiy fondlarni qo'llash jarayonida, iqtisodiy doiraga tabiiy va mehnat resurslarini kiritish bilan yaratilgan yalpi milliy mahsulotda alohida sarflar asosiy fondlarni qoplash va jamg'arishga qilinadi va ma'lum resurslar jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga sarflanadi.

Milliy daromad jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan iste'mol fondlaridan va asosiy fondlarni shakllantirishga ketadigan jamg'arma fondlaridan tashkil topadi. Hozirgi vaqtda davlat kapital qo'yilmalarining kattagina qismi jamg'arma fondidan, qolgan qismi asosiy fondlarni oddiy takror ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan amortizatsiya ajratmalaridan tashkil topadigan qoplama fondlar hisobidan amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalar hajmi, asosan, ikki manba hisobidan shakllantiriladi: markazlashgan va markazlashtirilmagan qo'yilmalar. Markazlashgan qo'yilmalar ustuvor investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladi, xususan, injener - texnik infrastrukturasi yaxshilash, uy-joy qurilishini tashkil etish, moddiy va texnik bazani yaxshilash uchun ishlatiladi.

Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ob'ektlarni barpo etish, ishga tushirish, qayta qurollantirish, zamonaviylashtirish, yangi faoliyat ob'ektiga aylantirish maqsadida mablag'lar quyidagilar kapital qo'yilmalar hisobiga ta'minlanadi:

1) markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ davlat budjeti mablag'lari;
- ✓ davlat budjetidan tashqari fondlar mablag'lari;
- ✓ hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar;
- ✓ hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar.

2) markazlashtirilmagan kapital qo'yilmalar:

- ✓ mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari;
- ✓ tijorat banklarining, shu jumladan, xorijiy tijorat banklarining kreditlari;
- ✓ jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari;
- ✓ qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.


1-chizma mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, keyingi paytlarda davlat budjeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualarini moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Buni biz davlat investitsiya dasturi asosida moliyalashtirilishi ta'minlanayotgan ob'ektlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Korxona ishlab chiqarish quvvatining boshlang'ich (yil boshida), yakuniy (yil oxirida), o'rtacha yillik hamda loyiha quvvati turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko'zda tutilgan bo'ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko'pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxona ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxona ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zahiradagi uskunalaridan tashqari, barcha o'rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba'zi bir sexlarda (yig'uv,

quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Kapital qo'yimalarga bo'lgan ehtiyoj maxsus mablag'lar va turli fondlarga ajratmalarni hisobiga shakllantiriladigan korxona va tashkilotlarning markazlashmagan mablag'lari hisobidan ham qoplanadi.



1-chizma. Kapital qo'yimalarni moliyalashtirish manbalari

Jadval ma'lumotlari bo'yicha kapital qo'yimalarning moliyaviy manbalari tarkibida davlat budjetining ulushi 2010-yildagi 7,8 foizdan 2014-yilda 4,5 foizga pasaygan bo'lsa, korxonalar va aholi mablag'lari ulushi tegishli ravishda 47,8 foizdan 54,7 foizga ko'tarilgan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa, shu davrda 28,3 foizdan 19,8 foizgacha pasaygan. (1-jadval)

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kapital qo'yimalarni moliyalashtirish manbalarining dinamikasi²

Moliyalashtirish manbalari	2010	2011	2012	2013	2014	2014-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi, foiz hisobida.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	
Davlat budjeti	7,8	6,0	5,1	5,3	4,5	-3,3
Budjetdan tashqari fondlar	7,0	7,5	10,7	9,9	9,8	2,8

² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<u>Xorijiy investitsiya va kreditlar</u>	<u>28,3</u>	<u>21,5</u>	<u>20,4</u>	<u>19,3</u>	<u>19,8</u>	<u>-8,5</u>
Korxona va aholi mablag`lari	47,8	53,4	52,7	55,2	54,7	6,9
Banklar kreditlari va boshqa jalb qilingan mablag`lar	9,1	11,6	11,1	10,3	11,2	2,1

Hozirgi kunda, hukumatimiz tomonidan boshqa davlatlar bilan iqtisodiy manfaatli bo`lmagan loyihalarni, moliyalash to`xtatila boshlandi. Hukumat tomonidan faqat iqtisodiy manfaat chegaralangan yoki umuman bo`lmagan ijtimoiy muhim loyihalar kafolatlanadi. Bular, birinchi navbatda, suv ta`minoti, ta`lim va sog`liqni saqlash, transport va aloqa infrastrukturasini sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda.

Yangicha xo`jalik yuritish sharoitlarida ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishda markazlashmagan qo`yilmalarning roli ham sezilarli darajada oshdi. Yangi texnikani joriy qilishga, uskunalarini yangilashga, xalq iste`moli mollarini ishlab chiqarishni kengaytirish va tashkil qilishga sarflanadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlari va bank kreditlari markazlashmagan mablag`larni barpo qilishning bosh manbai hisoblanadi.

Ko`mir va gaz qazib chiqarish hisobiga yoqilg`i sanoati tarmoqlarida ilg`or o`zgarishlar ro`y berdi. Qurilish tashkilotlari shohobchalarini kengayishi va qurilish ishlab chiqarishni industrlashtirish darajasini oshishi katta miqdorda kapital qo`yilmalarining o`zlashtirilishiga imkoniyat yaratdi. Davlat tomonidan yirik mablag`lar qishloq xo`jaligiga, birinchi navbatda paxtachilikka va uning asosi bo`lmish sug`orma dexqonchilikka ajratildi.

Transport vositalarining o`sishi va takomillashishi ta`minlandi, avtomobil va temir yo`llarining keng shoxobchalari barpo etildi, aloqa korxonalari, sog`liqni saqlash, maorif muassasalari, kommunal xo`jalik-maishiy xizmat korxonalari qurildi.

Sanoat tarmoqlari bo`yicha kapital qo`yilmalarni miqdorini to`g`ri belgilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarining rejali balanslari ishlandi.


Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek: "O`z-o`zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi"da ko`zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so`z yuritish mumkin emas. Bu vazifaning o`rtaga qo`yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xom-ashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo`yicha raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog`liq. Bugungi kunda ko`plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o`rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so`zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda,

iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin"³.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, mamlakatimizda sanoat muhsulotlarini o'sish sur'ati yildan-yilga o'sish tendensiyasiga ega. (1-rasmga qarang).

1 - rasm.

Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati (% hisobida)*



*O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarini o'sishi oxirgi 5 yilda o'rtacha 7,8 % dan yuqori bo'lgan. Bu holat esa iqtisodiyotimizda sanoat tarmog'ini yori tendensiyada rivojlanayotganini ko'rsatadi.


Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yog'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 33,5 foizga yetganida ham yaqqol ko'rish mumkin. Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda ayrim manbalarining o'rni va roli, ko'p jihatdan, makroiqtisodiy muvozanat hamda o'sish barqarorligi, mulkchilik shakllarining rivojlanish darajasi va o'zaro nisbatlari, bank-moliya tizimining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy va eng muhim manbalaridan biri kreditdir.

³ Karimov I.A.: "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". // "Xalq so'zi", 2012-yil 19-yanvar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlariga ilg'or texnika va texnologiyalarning jalb etilishi, mavjud infratuzilma faoliyatini takomillashtirish jarayoni albatta, banklarning investitsion kreditlari bilan uzviy, chambarchas bog'liqlikni taqozo etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar hajmi esa yildan yil ortib bormoqda (2-rasm).

2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ajaratilgan investitsion kreditlar dinamikasi, (trln.so'mda *).



* O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Rasmdagi ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 2015-yil tijorat banklari tomonidan ajaratilgan investitsion kreditlar miqdori 2014-yilga nisbatan 20% ga oshganligi ko'rsatmoqda.

Oxirgi yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga jalb etilgan kreditlar hajmi yildan – yilga oshib bormoqda. Ushbu yo'nalishlarga banklar tomonidan ajratilgan investitsion kreditlar hajmi 2015-yil 2014-yilga nisbatan 1,2 barobar oshdi va 10,2 trln.so'mni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, 2015-yil iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 2014-yilga nisbatan 27,7 foizga oshdi yoki 2016-yil 1-yanvar holatiga 44,4 trln.so'mdan oshib ketdi⁴. Mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion kreditlarni berishni ko'payishiga to'sqinlik qiluvchi muammolardan biri berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanishidir. Shu sababli, tijorat banklarida investitsion faoliyatni kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quydagi ishlarni amalga oshirish muvofiqdir:

- kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarini samarali baholash;
- kredit buyurtmachilarini to'lovga layoqatlilikiga to'la va haqqoniy aniqlash;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlaridan foydalaniladi.

- kreditni ta`minot bilan to`la ta`minlash.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko`rinadiki, mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta`minotining kuchayishiga, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo`llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o`sinh sur`atlarining ta`minlanishiga, tijorat banklarida investitsiyaviy kreditlashni yanada faollashtirish mazkur jarayonning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

Reja davri boshida ishlab chiqarishning mavjud quvvatlari hamda mo`ljallanayotgan miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur quvvatlar belgilanadi. Mavjud quvvatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ko`paytirish hamma rezervlarni hisobga olgan holda chuqur tahlil qilingandan keyin ishlab turgan korxonalarni qayta qurish yoki yangilarini qurish yo`li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini qo`shimcha o`stirish zaruriyati belgilanadi. Kapital qo`yilmalarning tarmoqlararo balanslarda, shu jumladan kapital qo`yilmalarning tarmoqlararo balans tenglamalariga kiritish usuli masalalari aks ettirishning ilmiy asoslari yetarli darajada o`rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha xo`jalik yuritish tamoyillariga mos holda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt normasi yoki har bir uskunaning unumdorlik normalari muhim ahamiyatga ega bo`lib, ular ilg`or hamda progressiv bo`lishi talab qilinadi. Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarining yuklanishini hisoblashda ba`zida xatolar, ular o`rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi. Korxona quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zahiralaridan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo`lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarining yuklanishni hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Demak, ular o`rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchi holatda korxona ishlab chiqarishi mumkin bo`lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalaridan qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog`liq bo`lgan mazkur chora-tadbirlar, ko`pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo`li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta`minlash manbalariga bo`lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda keng miqyosda qurilib foydalanishga topshirilayotgan sog`liqni saqlash muassasalari, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlarini, maktablar qurilishi va boshqalarni olishimiz mumkin. Bunday maqsadlar uchun davlat budjeti, mahalliy budjetlar hamda boshqa manbalardan keng foydalanilmoqda.

3. Korxonalar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari

Iqtisodiy tarkibning qayta qurilishi faol investitsiya siyosatini o`tkazish bilan chambarchas bog`liqdir. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish islohotlar strategiyasining muhim shartidir. Iqtisodiyot tuzilishining belgilangan

yo`nalishlari eksport imkoniyatining kengaytirilishiga, baquvvat investitsiya siyosatini o`tkazish yo`li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o`z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion loyihalarni moliyalashtirish investorlar tomonidan tashkil etilgan har xil manbalar, shu jumladan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo`li bilan, kreditlar evaziga qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog`ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga amalga oshiriladi.

Korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirish turli shakl va usullarda olib boriladi. Hozirgi vaqtda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, investitsiya faoliyatining bosh muammolaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilmoqda:

1) investorning o`z moliyaviy resurslari va ichki xo`jalik rezervlari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, maxsus zahira fondlari);

2) investorning qarz mablag`lari (bank krediti, budjet krediti, obligatsiya bo`yicha qarzlar);

3) jalb qilingan moliyaviy resurslar (aksiyalarni sotish, mehnat jamoasining pay va boshqa ko`rinishdagi badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari);

4) budjetdan investitsion assignatsiyalari (mahalliy, davlat va budjetdan tashqari fondlar mablag`lari).

5) chet el investitsiyalari (chet el kreditlari, to`g`ridan-to`g`ri chet el investitsiyasi, qo`shma korxonalar ko`rinishida);

6) lizing va seleng (investitsion loyihalarni moliyalashtirishning bir turi bo`lib, asbob-uskuna, transport vositalari, bino va inshootlarni ijariga yoki intellektual mulkdan foydalanish huquqini berish tushuniladi).

Ushbu moliyalashtirish shakllari va manbalarining har biri o`zining ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy jihatlariga ega, shu sababli investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllarini tahlil qilib eng qulay shakl va usul tanlanadi.

1) Korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning eng ishonchli manbasi bu o`z mablag`lari hisoblanadi. Har qanday tijorat tashkiloti doimo investitsiyalarni o`z hisobidan moliyalashtirishga intiladi. Bu holatda moliyalashtirish manbalarini qayerdan olish kerak degan muammo vujudga kelmaydi va uning bankrotlik xavf-xatari (riski) kamayadi. Bundan tashqari ijobiy tomonlari ham mavjud. Xususan o`z-o`zini moliyalashtirish korxonani rivojlanganligi va uning yaxshi moliyaviy holatini bildiradi hamda yana raqobatchilardan ma`lum bir ustunlikka ega bo`ladi, boshqa korxonalarda bunday imkoniyat bo`lmasligi mumkin. Har qanday tijorat tashkilotining asosiy o`z-o`zini moliyalashtirish manbai bu, asosan, sof foyda va amortizatsiya ajratmasi hisoblanadi.

a) foyda – korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbai sifatida.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning asosiy maqsadi, bu maksimal foyda olishdir. U korxona faoliyatining asosiy moliyaviy natijasi hisoblanadi.

Korxonaning balans foydasi (Fb) quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

$$\mathbf{FB=FS+FM+(DB-XB)} \quad (5.2.1)$$

Bu yerda, **FS** - mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan foyda; **FM** - korxona mulkini sotishdan tushgan foyda; **DB** - boshqa operatsiyalardan tushgan daromad, **XB** - boshqa operatsiyalar bo'yicha xarajatlar.

Yalpi foyda - foyda solig'i olish uchun soliq to'lanadigan baza hisoblanadi. Korxonani o'z ixtiyorida qoladigan foyda, ya'ni sof foyda (FS) qiziqtiradi va quyidagicha teng bo'ladi:

$$\mathbf{FS=FB-SF} \quad (5.2.2)$$

Bu yerda, **FB** - balans foyda; **SF** - foyda solig'i va boshqa majburiy to'lovlar.

Zamonaviy sharoitida korxona o'z ixtiyorida qoladigan foydani o'zi mustaqil taqsimlaydi va bu yerda shunday savol kelib chiqadi, bu foydani qanday qilib eng samarali taqsimlash mumkin? Uni ishlab chiqarishni rivojlantirishga; uy-joy, dam olish uyi, bog'cha va ishlab chiqarishga mo'ljallangan ob'ektlarni qurishga; agar aksionerlik jamiyati bo'lsa dividend to'lashga; xayriya maqsadlariga va boshqalarga yo'naltirilishi mumkin. Foydadan samarali foydalanish uchun korxonaning ayni vaqtdagi va istiqboldagi texnik holatini hamda korxona jamoasini ijtimoiy holatini yaxshi bilish lozim.

Agar korxona ishchilari ijtimoiy sohada, shu jumladan ish haqi darajasi bo'yicha, boshqa korxonalarga nisbatan yaxshiroq ta'minlangan bo'lsa, bu holda foyda birinchi navbatda, ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, agar korxonaning texnik rivojlanish darajasi past bo'lib, bu korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga to'sqinlik qilib, korxonani bankrotlikka olib kelsa, bunday holda, foydani korxonani rivojlantirish uchun yo'naltirish lozim. Shunday qilib, korxona foydasi uning iqtisodiy va ijtimoiy darajasiga asoslangan holda taqsimlanishi lozim.

Korxonada ushbu muhim qoidaga amal qilishlari lozim – “foyda korxonaning istiqbolda rivojlantirishini amalga oshirishga turtki berishi lozim”. Shunday qoida borki, ishlab chiqarishni rivojlanishi, oxir oqibatda korxona daromadi hajmini o'sishiga olib keladi, bu esa kelajakda korxona jamoasini ijtimoiy muammolarini hal bo'lishiga va korxona investitsiya imkoniyatlarini kengayishiga olib keladi.

b) amortizatsiya - korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbai sifatida.

Amortizatsiya - asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni normativ xizmati muddati davomida qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazib borish jarayonidir.

Asosiy vositalar tarkibiga xizmat muddati bir yildan kam bo'lmagan va o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga asta sekinlik bilan o'tkazib boradigan ishlab chiqarish vositalari kiradi. Ular: bino, inshoot, asbob-uskuna, mashina, transport vositalari, o'lchovchi uskunalar va h.k.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ham jismonan, ham ma'naviy eskiradi. Ob'ektlar qiymati hisoblangan amortizatsiya ajratmalari hisobidan qoplanadi.

Amortizatsiya ajratmalari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular qayta ishlab chiqarishni (ya'ni takror ishlab chiqarish) tashkil qilib qolmay, balki ma'lum darajada ularni kengaytirishga ham mo'ljallangan bo'ladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amortizatsiya korxonaning investitsiya ehtiyojini 70-80%ini qondiradi. Mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o'tishi korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbai sifatidagi ahamiyati ham o'sdi. Bu birinchi navbatda, asosiy fondlarning tez-tez qayta baholanishi va ko'p korxonalarning zararga ishlayotganligi bilan bog'liq.

Korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbai sifatida boshqalariga nisbatan ustunlik tomoni shundaki, korxonaning har qanday moliyaviy holatida, bu manba o'z o'rniga ega bo'ladi va doimo korxona ixtiyorida bo'ladi.

Raqobat jarayoni, asosiy fondlarni yangilab turishni talab etadi, bu esa kelgusidagi investitsiyalar uchun jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalarini hisoblashni taqozo etadi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida jadallashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llash salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, intensiv tarzdagi qayta ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Buning natijasida amortizatsiya ajratmalari, o'zi alohida bir shaklni tashkil qiladi. Boshqa qilib aytganda, kengayadi va investitsiyalash uchun oldingisiga nisbatan barqaror moliyaviy bazaga aylanadi. Shunday qilib, amortizatsiya ajratmalari korxonaning investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi muhim vositaga aylanadi.

c) korxonaning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ichki moliyaviy resurslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ xo'jalik usulida bajarilgan qurilish-montaj ishlaridan kelgan foyda (qilingan iqtisod);
- ✓ asosiy vositalarni likvidatsiya qilingan vaqtda olingan yaroqli materiallar;
- ✓ aylanma mablag'larning aylanishini tezlashishi hisobiga, muomuladan bo'shatilgan aylanma mablag'larning bir qismi;
- ✓ korxonaning o'zida tashkil qilingan maxsus rezerv fondlari va boshqalar.

Investitsion loyihalarni baholashda shuni hisobga olish lozimki, ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan, soliqlar ayirib tashlanadi. Ammo, bu hisoblangan soliqlar, amortizatsiya ajratmalari singari ma'lum muddat korxona aylanmaida qo'shimcha ishlatilishi va vaqtincha moliyaviy resurs bo'lishi mumkin.

d) agar korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari yetarli bo'lmasa, bunday holda, korxona mablag'larni qimmatli qog'ozlar chiqarish yoki bank krediti orqali jalb qilishi mumkin.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning keng tarqalgan va moliyalashtirishning asosiy manbalaridan bo'lib, qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarish, investitsiyalarni moliyalashtirishda markazlashgan mablag'lar va bank kreditlarining hissasini pasayishiga olib keladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozori, pul mablag'lariga ehtiyoji bo'lgan tarmoqlarga (korxonalarga) pul mablag'larini taqsimlab korxonalarning moliyaviy holatini barqarorlashtiradi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan harid qilinadigan qimmatli qog'ozlar ichida keng tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan aksiyalardir.

Aksiya - bu korxona mulkiga aksionerlarning qo'shgan xissasini tasdiqlovchi hujjat. Aksiyalar bo'yicha daromadlar dividend shaklida olinadi. Aksiyalar chiqarish orqali zarur bo'lgan pul mablag'lari jalb qilinadi. Aksionerlik kapitalini shakllantirishda ikki xil aksiya emissiya qilinadi: oddiy va imtiyozli aksiyalar.

Aksiyadan tashqari korxona obligatsiya chiqarish yo'li bilan mablag'larni jalb etadi.

Obligatsiya – bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Obligatsiya - bu qarzdorlik majburiyati bo'lganligi sababli aksiyaga nisbatan risk kamroq bo'ladi va obligatsiyalar shu sababli aksiyaga nisbatan tezroq sotiladi. Bu esa korxonaga zarur mablag'larni bir muncha qisqa vaqt ichida to'plash imkonini beradi. Obligatsiyaning aksiyaga nisbatan riski kamroq bo'lganligi sababli, obligatsiyaga to'lanadigan foiz aksiya bo'yicha dividendga nisbatan pastroq bo'ladi. Korxona uchun esa aksiya chiqarish, obligatsiya chiqarishga nisbatan qulayroqdir. Chunki foyda miqdoriga qarab, dividendni o'zgartirishi mumkin, obligatsiyada esa foiz qat'iy belgilangan bo'ladi.

2) *Investitsion loyihani moliyalashtirishning qarzga olingan manbai bo'lib, bank kreditlari, ipoteka ssudalari, sug'urta kompaniyalaridan olingan qarzlar yoki budjetdan tashqari fondlardan olingan kreditlar hisoblanadi.* Ushbu, moliyalashtirish manbalari ma'lum muddatga qaytarish va to'lovlilik shartli asosida beriladi. Investitsion loyihalarni kredit asosida moliyalashtirishning afzalroq tomoni shundaki, faoliyat yuritayotgan korxona uchun modernizatsiya, rekonstruksiya ishlari va kerakli me'yorda ishlab chiqarish quvvatini ta'minlashda, ya'ni korxona ishlab chiqarish faoliyatni kengaytirmoqchi bo'lsa, kreditdan foydalangani ma'qul, chunki, ishlab turgan korxona aktivlari ushbu kreditlar qaytarilishiga garov bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yangi tashkil etilayotgan korxona, tashkilotlar uchun esa investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun, aksioner kapitalidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki yangi tashkil etilgan korxonalar uchun bank kreditidan foydanish yuqori risk bilan bog'liq bo'lib, kredit olishda korxona uni qaytarish uchun yetarli darajada moliyaviy resurslar bilan yoki boshqa aktivlar bilan ta'minlanmagan bo'lishi mumkin, bunday shartlarni yangi korxona bajarmasligi sababli, aksionerlik kapitalidan foydalanadilar. Likvidlik bilan bog'liq bunday vaziyatlarda yangi korxona qiyin vaziyatlarga tushib qoladi. Loyiha yaxshi baholanganda, ham, yaxshi texnik asoslanganda ham banklar yuqori foiz stavkasida kredit berishlari mumkin. Aksioner kapitali esa bunday muammolar keltirib chiqarmaydi, ammo uni yig'ish ancha murakkab vazifadir, bank kreditlari esa bundan mustasnodir.

Investitsion loyihalarni kreditlash sharti, foiz stavkasi o'zgarishi bilan loyiha iqtisodiy ko'rsatkichlarlarining o'zgarishi orasidagi munosabat bilan aniqlanadi.

Ma'lumki, foiz stavkasi o'zgaras va o'zgaruvchan bo'ladi. Shu sababli korxona investitsiya loyihasini moliyalashtirishda kredit olmoqchi bo'lsa, u uzoq muddatli bo'lsa, u holda o'zgaras foiz stavkasidagi kreditdan foydalanadi.

Yaxshi asoslangan loyiha uchun qarz mablag'lari olish bir muncha osonroq bo'ladi. Moliyalashtirish jarayonini qarzga olinadigan mablag'larni hajmini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi, bu kredit olishni kafolatlashi mumkin. Ushbu ssuda kapitalini quyidagilarga yo'naltirilishi mumkin: asbob-uskunalar harid qilish, ishlab chiqarishni kengaytirishga, modernizatsiya, rekonstruksiya qilish va boshqalarga. Ssuda kapitalini quyidagi turlarga ajratish mumkin: aylanma mablag'larni tashkil qilish maqsadida tijorat, bank yoki mol-etkazib beruvchilarning turli xil shakldagi kreditlari yoki milliy va xorijiy moliyaviy institutlarining uzoq muddatli kreditlari.

Bank tomonidan olinadigan foizlar beriladigan kreditning hajmi, muddati uning ta'minlanganligi, kreditlash shakli, kreditning risk darajasi va boshqalarga bog'liq tarzda differensiyallashadi. Hozirgi vaqtda investorlar tez qaytish beruvchi tadbirkorlik faoliyatiga kreditlarni jalb qilmoqdalar.

Kreditlar, kreditlash muddatiga ko'ra qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli (1 yildan yuqori) turlarga bo'linadi. Korxonaning asosiy fondlari uchun olingan uzoq muddatli kreditlarni odatda investitsiya deb atashadi. Uzoq muddatli kreditlarning ob'ektiv zarurligi korxonani ishlab chiqarishini kengaytirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Aynan shu sharoitda kredit munosabatlarida uzoq muddatlilik harakteri vujudga keladi. Bu qarzdorga o'z mablag'larini o'z muomulasidan olishga (aylanmasidan olishga) nisbatan, bir muncha qisqaroq vaqtda pul mablag'larini olish imkoniyatini beradi. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning kredit usulining afzallik tomoni mablag'larni qaytarishlik bilan bog'liqdir. Bu kapital qo'yilmalarni haqiqiy qoplanishi va kreditni qaytarilishini nazaratini kuchaytiradi. Bu esa o'z-o'zidan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kapital qo'yilmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarini qidirib topish, ishlab chiqarishga investitsiyalarni, jumladan xorijiy kapital qo'yilmalarni jalb etish orqali mavjud sohalarni rivojlantirish mumkin. Bunday moliyalashtirish mulkchilikning turli shakllariga mansub xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini yanada samarali bo'lishiga yordamlashadi, xo'jalik amaliyotida asta-sekin bosqichma-bosqich iqtisodiy o'sishni kengaytirishga, xorijiy kapital qo'yilmalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, takror ishlab chiqarishni har

tomonlama jadallashtirishga imkon beradi, xususiyl sektorini investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmiga ustuvorlik berish, buning uchun qulay shart-sharoit yaratish (imtiyozlar va boshqalar), moliyalashtirishning turli usullaridan faol foydalanish, aholi mablag'larini faol jalb qilish, foiz stavkalarini diversifikatsiyalash, yangi texnika-texnologiyalarni o'zlashtirishda chet el kreditlari va kapital qo'yilmalarini faol jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuning yangi tahriri. –T.: 29.10.2014y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 30.04.1998y.
3. "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-noyabrdagi 2264-sonli Qarori.
4. "O'zbekiston Respublikasining 2014-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrdagi 2069-sonli Qarori.
5. "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-dekabrdagi 288-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2014-yil 16-yanvar.
7. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2015-yil 17-yanvar
8. Karimov I.A.: "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". T.: "O'zbekiston", 2012.
9. Karimov I.A.: "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". T: "O'zbekiston". 2010.
10. G'ozibekov D.G'., "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari". - T.: "Moliya", 2003
11. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G.: "Xorijiy investitsiyalar", O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya", 2010.
12. Imomov X.X.: Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", o'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2010.
13. Шарп У.Ф., Александер Г.Дж., Бейли Д.В.: "Инвестиции". – М.: "ИНФРА-М", 1998.

14. Ergasheva Sh., Uzoqov A.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O`quv qo`llanma. - T.: “Iqtisodiyot”, 2009.
15. Uzoqov A.T., Nosirov E.I., Saidov R.B., Sultonov M.A.: “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi”. O`quv qo`llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2006.
16. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O`quv qo`llanma. – T.: TDIU, 2010.
17. Mamatov B. S., Xujamkulov D.Y., Nurbekov O. SH.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. Darslik. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2014.
18. Игони́на Л.Л.: “Инвестиции”. – М.: “ Экономист ” 2005.
19. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining yillik hisobotlari.
20. Internet saytlari:
 - <http://www.stat.uz> (O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi);
 - <http://www.mf.uz> (O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi);
 - <http://www.mfer.uz> (O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi);
 - <http://www.lex.uz> (O`zbekiston Respublikasi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar to`plami).